INNOVATSION TA’LIM METODLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI

Burxonova M.F.,
GDPI talabasi

Annotatsiya: ushbu tezisda o‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishish. Bu metodlarni har bir (fan) darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlashga qaratilgan. Faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘sishiga olib keluvchi metodlar haqida tahlil va tadqiqotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, pedagogik yangilik, pedagogik faoliyat, innovatsion jarayonlar, bilim, ta’lim metodlari, innovatsion metodlar, zamonaviy texnologiyalar, interaktiv metodlar, interfaol metodlar, pedagogik mahorat, muammoli ta’lim metodi.

Аннотация: в данном тезисах рассматривается использование современных методов обучения для достижения высокой эффективности учебного процесса. Эти методы направлены на выбор, исходя из дидактической задачи каждого (предметного) урока. Особое внимание уделяется анализу и исследованию методов, которые улучшают обучение посредством различных активирующих методов.

Ключевые слова: инновация, педагогическое новаторство, педагогическая деятельность, инновационные процессы, знания, методы обучения, инновационные методы, современные технологии, интерактивные методы, интерактивные методы, педагогическое мастерство, проблемный метод обучения.

Abstract: this article discusses the use of modern teaching methods to achieve high efficiency of the educational process. These methods are aimed at selection based on the didactic task of each (subject) lesson. Particular attention is paid to the analysis and research of methods that improve learning through various activating methods.

Key words: innovation, pedagogical innovation, pedagogical activity, innovative processes, knowledge, teaching methods, innovative methods, modern technologies, interactive methods, interactive methods, pedagogical skill, problem-based teaching method.

Har bir davlatning ertangi kuni va kelajagi fuqarolarining intellektual salohiyatiga, madaniyati, bunyodkorligiga va ta’limga bo‘lgan e’tiboriga tayanadi. Zero, eski ta’lim-tarbiya asosida yangi jamiyat qurib bo‘lmagani kabi mamlakatimiz kelajagi, shubhasiz kadrlar tayyorlash masalasiga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi”.

Innovatsiya (inglizcha innavation) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to‘liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar -bu jamoa bo‘lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarnig o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar, pedagogik va axborot texnologiyalari o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, taxlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchlik funksiyasini bajaradi. Innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ro‘li benihoya kattadir. Pedogogik texnologiya va pedagog maxoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘quvchi, talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag’batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar, kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta’lim maqsadi, ta’lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy sharoiti, ta’limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi.

Interfaol metodlar deganda- ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar

tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- Ta’lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- Ta’lim oluvchining yuqori darajada rag’batlantirilishi;
- Ilgari orttirilgan bilimlarning ham e’tiborga olinishi;
- Ta’lim jarayoni talim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- Ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- Amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- Ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Ta’lim berishda turli xil usullar ya’ni, metodlar mavjud. O‘qituvchi qay uslubda dars bermasin maqsadiga yetish imkonini izlaydi, bu borada, ta’lim metodlari va innovatsion metodlardan foydalanadi. Ta’lim metodlari shu vaqtga qadar o‘zining samarasini ko‘rsatib kelmoqda va dars mashg‘ulotlar yangicha uslublarda olib borilishi yanada yaxshi natijalarga erishish uchun izlanishlar, yangilanishlar davom etmoqda. Ma’lumki innovatsion faoliyatda pedagogik yangiliklar, o‘qitishning yangi usul va metodlarining yaratilishi, qo‘llanishi o‘quv jarayonining samarali va sifatli tashkil etilishini yaratib beradi. Pedagogik yangilik-pedagogik faoliyatda ilgari ta’lim jarayonida noma’lum bo‘lgan o‘zgarishlarni kiritish orqali ta’lim va tarbiyaning nazariya va amaliyotini boyitish va uni rivojlantiruvchi omilidir.

O‘quvchilarda nazariy ma’lumotlarni yetarlicha o‘zlashtira olmagan o‘quvchilarda oddiy dars shakli va tushuntirishdan ko‘ra o‘quvchi tasavvurida nazariy ma’lumotlar osonlik bilan qabul qilinadi. Dars jarayonida inovatsion metodikalar orqali mavzuni mustahkamlashda bazan bir necha hattoki butun auditoriyani ma’lumatlarni qabul qilish va mustahkamlash jarayoniga qiziqarli tarzda jalb qila olish xususiyati bilan hozirgi kunda o‘z ahamiyatliligi va ko‘lamini tezlik bilan kengaytirmoqda. Shu bilan birgalikda dars jarayonida innovatsion metodikalardan samarali foydalanish o‘qituvchining dars jarayonini o‘quvchilarga yetkazib berish jarayonini samarasini oshirish bilan birgalikda o‘qituvchining ko‘p qirrali faoliyatini rang barang qilishda, balki o‘quv jarayonini jadallashtirish, bilim olish amaliyotini faollashtirish, o‘quvchilar ishtiyoqini kuchaytirish va jadallashtirishga samarali xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqodirov A., Ishmuhammedov R. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. -T.: 2008. – 128 b.

2. Rahmatova F., Sheranova M., Boyto‘rayeva N., Uktamova U. Pedagogik kompetentlik. Darslik. 2021.-146-147-148 b.

3. Prezident Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi

4. Azimov T. M. Ta'lim tizimida zamonaviy metodlar va texnologiyalar. O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi, 2021

5. Iskandarov, A. Yangi ta'lim texnologiyalari va ularning o‘qitish jarayoniga ta'siri. Ta'lim va innovatsiyalar jurnali, 2022

6. Xolmatova D. O‘qitishda yangi metodlarning ahamiyati. –T., Oliy ta'lim muassasalari konferensiyasi, 2023

7. Abdullayeva S. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar: muammolar va yechimlar. Ta'lim va texnologiyalar, 2023.